



DEVELOPING A CONCEPTUAL MODEL OF LEGAL EDUCATION FOR THE PREVENTION OF OFFENSES AMONG YOUTH

Izzatbek Habibjonov

Alfraganus University

Faculty of Social Sciences

3rd-Year Student, National Idea, Foundations of Spirituality and Law Education Program

Email: xabibjonovizzatbek22@gmail.com

Tashkent, Uzbekistan

Sherdor Nematjonovich Pulatov

Alfraganus University

Head of the Department of Social Sciences

Doctor of Philosophy (PhD) in Philosophy, Associate Professor

Email: psherdor88@gmail.com

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: legal education, legal culture, legal consciousness, crime prevention, youth policy, conceptual model, legal immunity, prevention, institutional cooperation, preventive pedagogy.

Received: 28.07.26

Accepted: 29.07.26

Published: 30.07.26

Abstract: This scientific study analyzes the theoretical and practical foundations of legal education in the prevention of juvenile delinquency and offenses among young people. The research substantiates the role of the legal education system in developing young people's legal consciousness, legal culture, and legal responsibility. Furthermore, it examines the mechanisms of cooperation among state authorities, educational institutions, families, mahalla community institutions, and civil society organizations in the prevention of offenses. The author proposes a conceptual model of legal education, outlining its structural components, functional dimensions, and mechanisms for practical implementation. The findings contribute to the early prevention of offenses among youth, the strengthening of legal immunity, and the enhancement of the effectiveness of the preventive system.

**YOSHLAR ORASIDA HUQUQBUZARLIKLARNING OLDINI OLISHDA HUQUQIY
TARBIYANING KONSEPTUAL MODELINI ISHLAB CHIQISH****Izzatbek Habibjonov**

Alfraganus University

Ijtimoiy fanlar fakulteti

Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi

yo'nalishi 3-bosqich talabasi

email: xabibjonovizzatbek22@gmail.com

Toshkent, O'zbekiston

Sherdor Nematjonovich Pulatov

Alfraganus university

Ijtimoiy fanlar kafedrasini mudiri

Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori., (PhD). Dotsent.

psheeror88@gmail.com

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: huquqiy tarbiya, huquqiy madaniyat, huquqiy ong, huquqbuzarliklar profilaktikasi, yoshlar siyosati, konseptual model, huquqiy immunitet, profilaktika, institutsional hamkorlik, preventiv pedagogika.

Annotatsiya: Mazkur ilmiy ishda yoshlar orasida huquqbuzarliklarning oldini olishda huquqiy tarbiyaning nazariy va amaliy asoslari tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida huquqiy tarbiya tizimining yoshlar huquqiy ongi, huquqiy madaniyati va huquqiy mas'uliyatini shakllantirishdagi o'rni ilmiy jihatdan asoslanadi. Shuningdek, huquqbuzarliklarning profilaktikasida davlat organlari, ta'lim muassasalari, oila, mahalla hamda fuqarolik jamiyati institutlari o'rtasidagi hamkorlik mexanizmlari o'rganiladi. Muallif tomonidan huquqiy tarbiyaning konseptual modeli ishlab chiqilib, uning tarkibiy elementlari, funksional yo'nalishlari hamda amaliy qo'llash mexanizmlari taklif etiladi. Tadqiqot natijalari yoshlar orasida huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish, huquqiy immunitetni mustahkamlash va profilaktika tizimi samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

**РАЗРАБОТКА КОНЦЕПТУАЛЬНОЙ МОДЕЛИ ПРАВОВОГО ВОСПИТАНИЯ В
СИСТЕМЕ ПРЕДУПРЕЖДЕНИЯ ПРАВОНАРУШЕНИЙ СРЕДИ МОЛОДЕЖИ****Иззатбек Хабибжонов**

Университет «Alfraganus»

Факультет социальных наук

Студент 3-го курса направления «Национальная идея, основы духовности и правовое образование»

Электронная почта: xabibjonovizzatbek22@gmail.com

Ташкент, Узбекистан

Шердор Нематжонович Пулатов

Университет «Alfraganus»

Заведующий кафедрой социальных наук

Доктор философии (PhD) по философским наукам, доцент

Электронная почта: psherdor88@gmail.com

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: правовое воспитание, правовая культура, правосознание, профилактика правонарушений, молодежная политика, концептуальная модель, правовой иммунитет, профилактика, институциональное взаимодействие, превентивная педагогика.	Аннотация: В данной научной работе проводится анализ теоретических и практических основ правового воспитания в предупреждении правонарушений среди молодежи. В ходе исследования научно обосновывается роль системы правового воспитания в формировании правосознания, правовой культуры и правовой ответственности молодежи. Кроме того, исследуются механизмы взаимодействия государственных органов, образовательных учреждений, семьи, махалли и институтов гражданского общества в системе профилактики правонарушений. Автором разработана концептуальная модель правового воспитания, предложены ее структурные элементы, функциональные направления и механизмы практической реализации. Результаты исследования направлены на обеспечение ранней профилактики правонарушений среди молодежи, укрепление правового иммунитета и повышение эффективности системы профилактики.
--	---

Kirish. Bugungi globallashuv, raqamlashtirish va axborot oqimining keskin ortib borishi sharoitida yoshlar orasida huquqbuzarliklarning oldini olish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Zamonaviy jamiyatda yoshlarning huquqiy ongini yuksaltirish, ularda qonunga hurmat, fuqarolik mas'uliyati hamda huquqiy madaniyatni shakllantirish faqat jazolash mexanizmlari orqali emas, balki uzluksiz va tizimli huquqiy tarbiya vositasida amalga oshirilishi mumkin.

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida yoshlar siyosati, huquqbuzarliklar profilaktikasi hamda huquqiy ta'limni rivojlantirishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, huquqiy madaniyatni yuksaltirish, huquqiy ta'limning uzviyligini ta'minlash va profilaktik faoliyat samaradorligini oshirish bo'yicha qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Biroq, amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, yoshlar bilan ishlashda mavjud huquqiy tarbiya mexanizmlari ko'pincha tarqoq, turli institutlar faoliyati esa yetarli darajada integratsiyalashmagan.

Ilmiy adabiyotlarda huquqiy tarbiya masalasi keng yoritilgan bo'lsa-da, uni aynan yoshlar huquqbuzarligining profilaktikasiga qaratilgan yagona konseptual model asosida tizimlashtirish masalasi yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Mavjud tadqiqotlarda huquqiy ta'lim, huquqiy ong yoki huquqiy madaniyat alohida o'rganilgan bo'lib, ularning o'zaro funksional bog'liqligi hamda profilaktik natijadorlikka ta'sir etuvchi mexanizmlar kompleks tarzda tahlil qilinmagan.

Shu sababli mazkur tadqiqotning maqsadi yoshlar orasida huquqbuzarliklarning oldini olishga xizmat qiluvchi huquqiy tarbiyaning konseptual modelini ishlab chiqish, uning nazariy asoslarini takomillashtirish hamda amaliy qo'llash mexanizmlarini ilmiy jihatdan asoslashdan iborat.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundan iboratki, unda huquqiy tarbiya davlat organlari, ta'lim muassasalari, oila, mahalla, fuqarolik jamiyati institutlari va raqamli ta'lim platformalari o'rtasidagi integratsiyalashgan hamkorlik asosida uzluksiz pedagogik tizim sifatida talqin qilinadi. Shuningdek, huquqiy bilim, huquqiy qadriyat, huquqiy tafakkur, huquqiy immunitet va huquqiy mas'uliyatning o'zaro uzviy bog'liqligiga asoslangan mualliflik konseptual modeli taklif etiladi.

Adabiyotlar tahlili. Yoshlar orasida huquqbuzarliklarning oldini olish masalasi zamonaviy huquqshunoslik, pedagogika va kriminologiya fanlarining ustuvor tadqiqot yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Mavjud ilmiy tadqiqotlarda huquqbuzarliklarning oldini olishning samarali mexanizmi sifatida jazolash choralarini kuchaytirishdan ko'ra, shaxsning huquqiy ongi, huquqiy madaniyati va fuqarolik mas'uliyatini rivojlantirishga asoslangan profilaktik yondashuv ustuvor ekanligi ta'kidlanadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida inson huquqlari, erkinliklari va qonun ustuvorligini ta'minlash davlatning asosiy vazifalaridan biri sifatida belgilangan bo'lib, mazkur konstitutsiyaviy tamoyillar yoshlar huquqiy tarbiyasining ham huquqiy asosini tashkil etadi [1].

O'zbekiston Respublikasida huquqiy tarbiya tizimini yangi bosqichga olib chiqishda Prezidentning 2019-yil 9-yanvardagi PF-5618-son Farmoni alohida o'rin tutadi. Mazkur Farmon bilan tasdiqlangan Konsepsiyada jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilanib, huquqiy tarbiya "shaxs – oila

– mahalla – ta’lim muassasasi – tashkilot – jamiyat” tamoyili asosida uzluksiz tashkil etilishi lozimligi qayd etilgan [2]. Ushbu yondashuv huquqiy tarbiyani faqat ta’lim muassasalari faoliyati bilan cheklamay, barcha ijtimoiy institutlarning o’zaro hamkorligiga asoslangan tizim sifatida talqin etadi.

Xalqaro ilmiy adabiyotlarda ham huquqiy tarbiya va qonun ustuvorligi o’rtasidagi bog’liqlik keng yoritilgan. UNESCO hamda BMTning Narkotiklar va jinoyatchilik bo’yicha boshqarmasi (UNODC) tomonidan tayyorlangan “Strengthening the Rule of Law through Education: A Guide for Policymakers” qo’llanmasida ta’lim muassasalari yoshlarni qonun ustuvorligi, inson huquqlari, fuqarolik mas’uliyati va ijtimoiy adolat tamoyillari ruhida tarbiyalovchi asosiy institut sifatida e’tirof etiladi. Qo’llanmada huquqiy tarbiyani samarali tashkil etish uchun o’quv dasturlarini takomillashtirish, o’qituvchilar malakasini oshirish hamda maktab–oila–jamiyat hamkorligini kuchaytirish zarurligi asoslab berilgan [3]. UNESCO ekspertlari ta’lim tizimi qonun ustuvorligini ta’minlashda faqat huquqiy bilimlarni berish bilan cheklanmasligi, balki o’quvchilarda adolat, tenglik, mas’uliyat, tanqidiy fikrlash va fuqarolik faolligini shakllantirishi zarurligini ta’kidlaydi [4]. Mazkur yondashuv huquqiy tarbiyani shaxsning ijtimoiy xulq-atvorini shakllantirishga xizmat qiluvchi uzluksiz pedagogik jarayon sifatida baholash imkonini beradi.

Huquqiy madaniyat nazariyasining rivojlanishida amerikalik huquqshunos Lawrence M. Friedmanning ilmiy qarashlari alohida o’rin tutadi. Olimning fikricha, huquqiy madaniyat jamiyatning huquqqa bo’lgan munosabatini ifodalovchi muhim ijtimoiy hodisa bo’lib, aynan fuqarolarning huquqiy qadriyatlari va huquqiy xulq-atvori huquq tizimining amaliy samaradorligini belgilaydi [5]. Mazkur nazariya yoshlar huquqiy madaniyatini rivojlantirish huquqbuzarliklar profilaktikasining asosiy omillaridan biri ekanligini ilmiy jihatdan asoslaydi.

Huquq sotsiologiyasining asoschilaridan biri Roscoe Pound esa huquqni jamiyat manfaatlarini muvofiqlashtiruvchi ijtimoiy institut sifatida talqin qiladi. Uning nazariyasiga ko’ra, huquqning asosiy vazifasi jamiyatdagi manfaatlar muvozanatini ta’minlashdan iborat bo’lib, bunga erishishda huquqiy tarbiya va ijtimoiylashuv muhim ahamiyat kasb etadi [6]. Mazkur yondashuv bugungi kunda huquqbuzarliklarning profilaktikasiga oid konseptual modellarning nazariy asoslaridan biri hisoblanadi.

Mahalliy tadqiqotchilar ham yoshlarning huquqiy madaniyatini yuksaltirish masalasiga alohida e’tibor qaratmoqdalar. Xususan, O. F. Tursunova huquqiy ong va huquqiy madaniyatni rivojlantirish ma’naviy tarbiyaning ajralmas qismi ekanligini ta’kidlab, yoshlarda qonunga hurmat, fuqarolik mas’uliyati va huquqiy tafakkurni shakllantirishda oila, ta’lim muassasalari hamda mahallaning uzviy hamkorligi muhim omil ekanligini ilmiy asoslaydi [7].

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi Qonunida huquqbuzarliklarning oldini olish davlat organlari, ta'lim muassasalari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari hamda fuqarolik jamiyati institutlari hamkorligi asosida amalga oshirilishi belgilangan [8]. Mazkur qonun huquqbuzarliklar profilaktikasida tarbiyaviy, ijtimoiy va tashkiliy mexanizmlarning ustuvorligini belgilashi bilan ilmiy tadqiqot uchun muhim normativ asos hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonunida yoshlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilgan [9]. Mazkur hujjatda yoshlarni vatanparvarlik, qonunga hurmat va fuqarolik mas'uliyati ruhida tarbiyalash davlat organlari hamda ta'lim muassasalarining muhim vazifasi sifatida belgilangan.

Mavjud ilmiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, tadqiqotlarning aksariyati huquqiy ong, huquqiy madaniyat yoki huquqiy ta'limning alohida jihatlariga bag'ishlangan. Biroq yoshlar orasida huquqbuzarliklarning oldini olishga qaratilgan huquqiy tarbiyaning konseptual modeli, uning tarkibiy komponentlari, institutsional subyektlari, funksional aloqalari va samaradorlik mezonlarini yagona tizim sifatida asoslovchi tadqiqotlar yetarli emas. Mazkur ilmiy bo'shliq ushbu tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi va muallif tomonidan taklif etilayotgan konseptual modelni ishlab chiqish zaruratini asoslaydi.

Metodologik qism. Ushbu ilmiy yondashuvda yoshlar orasida huquqbuzarliklarning oldini olishda huquqiy tarbiyaning konseptual modelini ishlab chiqishning nazariy va amaliy asoslarini aniqlash maqsadida kompleks ilmiy yondashuv qo'llanildi. Tadqiqot metodologiyasi huquqshunoslik, pedagogika, sotsiologiya va kriminologiya fanlarining metodologik tamoyillarini uyg'unlashtirishga asoslanadi.

Izlanishning nazariy asosini O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-yanvardagi PF-5618-son Farmoni bilan tasdiqlangan "Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish konsepsiyasi", "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi hamda "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi qonunlar tashkil etdi [10–13]. Mazkur normativ-huquqiy hujjatlar huquqiy tarbiya, huquqiy madaniyat va huquqbuzarliklar profilaktikasining institutsional asoslarini belgilab beradi.

Shuningdek, UNESCO va UNODC tomonidan ishlab chiqilgan "Strengthening the Rule of Law through Education: A Guide for Policymakers" qo'llanmasi hamda UNESCOning qonun ustuvorligini ta'lim orqali mustahkamlashga oid metodik tavsiyalari tadqiqotning konseptual

asoslaridan biri sifatida foydalanildi [3; 4]. Ushbu hujjatlarda huquqiy ta'limning inson huquqlari, global fuqarolik, ijtimoiy adolat va huquqbuzarliklarning oldini olishdagi o'rni asoslab berilgan.

Tadqiqot jarayonida quyidagi ilmiy usullardan foydalanildi:

- Normativ-huquqiy tahlil usuli orqali O'zbekiston Respublikasining huquqiy tarbiya va huquqbuzarliklar profilaktikasiga oid qonun hujjatlari hamda strategik dasturlari o'rganildi [10–13].
- Qiyosiy-huquqiy tahlil usuli yordamida O'zbekiston tajribasi UNESCO va UNODC tomonidan tavsiya etilgan xalqaro yondashuvlar bilan taqqoslandi [3; 4].
- Tizimli tahlil usuli asosida huquqiy tarbiyaning tarkibiy elementlari (huquqiy bilim, huquqiy ong, huquqiy madaniyat, huquqiy immunitet va huquqiy mas'uliyat) o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik tahlil qilindi.
- Kontent-tahlil usuli orqali mahalliy va xorijiy ilmiy adabiyotlar, normativ-huquqiy hujjatlar hamda xalqaro tashkilotlarning hisobotlari o'rganildi. Xususan, Lawrence M. Friedman, Roscoe Pound, UNESCO, UNODC hamda O'zbekiston olimlarining ilmiy ishlari tahlil qilindi [3–9].
- Sintez va modellashtirish usuli asosida yoshlar orasida huquqbuzarliklarning oldini olishga qaratilgan huquqiy tarbiyaning mualliflik konseptual modeli ishlab chiqildi. Model davlat organlari, ta'lim muassasalari, oila, mahalla va fuqarolik jamiyati institutlarining o'zaro integratsiyasiga asoslangan holda shakllantirildi.

Mazkur metodologik yondashuv huquqiy tarbiya tizimining mavjud holatini kompleks baholash, uning amaliy muammolarini aniqlash hamda yoshlar orasida huquqbuzarliklarning oldini olishga xizmat qiluvchi yangi konseptual modelni ilmiy jihatdan asoslash imkonini berdi.

Tadqiqot natijalari va muhokama. Hammamizga ma'lumki bugungi yoshlar orasida huquqbuzarliklarning oldini olish bugungi kunda faqat huquqni muhofaza qiluvchi organlarning vazifasi sifatida emas, balki davlat va jamiyat institutlarining uzviy hamkorligiga asoslangan kompleks ijtimoiy-pedagogik jarayon sifatida qaralmoqda. Zamonaviy ilmiy yondashuvlar shuni ko'rsatadiki, huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish shaxsda huquqiy bilim, huquqiy tafakkur, huquqiy qadriyatlar va qonunga hurmatni shakllantirish bilan bevosita bog'liq. UNESCO va UNODC ekspertlari ta'lim tizimi yoshlarni qonun ustuvorligi, inson huquqlari va fuqarolik mas'uliyati ruhida tarbiyalash orqali jinoyatchilik va zo'ravonlikning oldini olishga sezilarli hissa qo'shishini ta'kidlaydilar. Ular maktab, oila va mahalla hamkorligini, shuningdek ta'limning "faqat huquqni o'rgatish" emas, balki huquqiy qadriyatlarni shakllantirish vazifasini ham bajarishi lozimligini qayd etadilar [14].

Mazkur yondashuv O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan islohotlar mazmuni bilan ham uyg'unlashadi. Xususan, PF–5618-son Farmonida huquqiy madaniyatni yuksaltirishning uzluksiz tizimini shakllantirish, aholining, ayniqsa yoshlarning huquqiy savodxonligini oshirish hamda huquqbuzarliklarga nisbatan murosasiz munosabatni qaror toptirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Biroq amaliyot tahlili huquqiy tarbiya bilan shug'ullanuvchi subyektlar faoliyati ko'pincha o'zaro muvofiqlashtirilmagan holda amalga oshirilayotganini ko'rsatadi. Natijada huquqiy ta'lim, ma'naviy tarbiya, profilaktik ishlar va yoshlar bilan individual ishlash yagona tizimga birlashmay qolmoqda.

Shu nuqtai nazardan, tadqiqot davomida mavjud ilmiy yondashuvlar umumlashtirilib, huquqiy tarbiyaning institutsional-integrativ konseptual modeli ishlab chiqildi. Mazkur modelning asosiy g'oyasi huquqbuzarliklarning oldini olishni faqat huquqiy bilim berish bilan emas, balki huquqiy kompetensiyalarni shakllantirish, ijtimoiy muhitni sog'lomlashtirish va institutlararo hamkorlikni kuchaytirish orqali ta'minlashdan iborat.

Taklif etilayotgan konseptual model beshta o'zaro bog'liq komponentdan tashkil topadi:

Birinchi komponent – institutsional hamkorlik. Mazkur komponent davlat organlari, ta'lim muassasalari, oila, mahalla, Yoshlar ishlari agentligi, fuqarolik jamiyati institutlari hamda ommaviy axborot vositalarining o'zaro hamkorligini nazarda tutadi. Xalqaro tavsiyalarda ham maktab–oilajamiat hamkorligi qonun ustuvorligini mustahkamlashning asosiy omillaridan biri sifatida e'tirof etilgan [15].

Ikkinchi komponent – huquqiy kompetensiyalarni rivojlantirish. Tadqiqot natijalariga ko'ra, huquqiy tarbiya quyidagi tarkibiy qismlarni qamrab olishi zarur:

- huquqiy bilim;
- huquqiy tafakkur;
- huquqiy qadriyat;
- huquqiy madaniyat;
- huquqiy mas'uliyat;
- huquqiy immunitet.

Mazkur elementlar bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lib, ulardan birining yetarli darajada shakllanmasligi yoshning huquqiy xulq-atvoriga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Uchinchi komponent – profilaktik pedagogik mexanizmlar. Ushbu komponent doirasida huquqiy treninglar, debatlar, keys-stadilar, mediatsiya elementlari, raqamli huquqiy ta'lim platformalari hamda interaktiv metodlardan foydalanish nazarda tutiladi. UNESCO ekspertlari aynan interaktiv va ishtirokchiga yo'naltirilgan pedagogik yondashuvlar yoshlarning huquqiy

qadriyatlarini shakllantirishda an'anaviy ma'ruzalarga nisbatan samaraliroq ekanligini ta'kidlaydilar [16].

To'rtinchi komponent – monitoring va erta diagnostika. Huquqbuzarliklarning oldini olishda xavf guruhiga kiruvchi yoshlarni erta aniqlash, ularning ijtimoiy-psixologik holatini muntazam monitoring qilish hamda individual profilaktik dasturlarni ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi. UNDPning O'zbekiston bo'yicha huquqiy ehtiyojlarni baholash hisobotida ham aholining huquqiy savodxonligini oshirish va mahalla darajasida huquqiy maslahat xizmatlarini kuchaytirish adolatga erishishning muhim omili sifatida ko'rsatilgan [17].

Beshinchi komponent – natijadorlik indikatorlari. Taklif etilayotgan model samaradorligini baholash uchun quyidagi mezonlar tavsiya etiladi:

- huquqiy bilim darajasi;
- huquqiy madaniyat indeksi;
- huquqbuzarliklar sonining kamayishi;
- yoshlarning fuqarolik faolligi;
- huquqiy tadbirlardagi ishtirok darajasi;
- qonunga itoatkor xulq-atvor ko'rsatkichlari.

Mazkur indikatorlar huquqiy tarbiya tizimining real samaradorligini baholash imkonini beradi hamda mavjud profilaktik faoliyatni takomillashtirish uchun amaliy asos yaratadi.

1-jadval

Yoshlar orasida huquqbuzarliklarning oldini olishda huquqiy tarbiyaning konseptual modeli (mualliflik modeli)

Model elementi	Asosiy mazmuni	Amalga oshiruvchi subyektlar	Baholash indikatorlari
INPUT (Kirish resurslari)	Konstitutsiya, qonunlar, Prezident farmonlari, davlat dasturlari, huquqiy ta'lim resurslari, pedagog kadrlar, raqamli platformalar, moddiy-texnik baza	Oliy Majlis, Prezident Administratsiyasi, Vazirlar Mahkamasi, Adliya vazirligi, Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, Oliy ta'lim vazirligi	Huquqiy-me'yoriy baza, ajratilgan resurslar, mutaxassislar soni
PROCESS (Jarayon)	Huquqiy ta'lim, huquqiy targ'ibot, interaktiv darslar, treninglar, debatlar, mediatsiya, case-study, profilaktik suhbatlar, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, raqamli huquqiy platformalar	Ta'lim muassasalari, oila, mahalla, Ichki ishlar organlari, Yoshlar ishlari agentligi, NNT, OAV	O'tkazilgan tadbirlar soni, qamrov darajasi, ishtirokchilar ulushi

Model elementi	Asosiy mazmuni	Amalga oshiruvchi subyektlar	Baholash indikatorlari
OUTPUT (Bevosita natija)	Huquqiy bilim, huquqiy ong, huquqiy tafakkur, huquqiy madaniyat, huquqiy mas'uliyat, huquqiy immunitet, qonunga hurmat	Yoshlar, pedagoglar, psixologlar, profilaktika inspektorlari	Test natijalari, so'rovnoma ko'rsatkichlari, huquqiy savodxonlik indeksi
OUTCOME (O'rta muddatli natija)	Huquqbuzarlikka moyillikning kamayishi, fuqarolik faolligining oshishi, ijtimoiy moslashuvning yaxshilanishi, profilaktik hamkorlikning kuchayishi	Ta'lim muassasalari, mahalla, Yoshlar ishlari agentligi, IIO	Huquqbuzarliklar dinamikasi, ijtimoiy faollik, profilaktik hisobdagi yoshlar soni
IMPACT (Strategik ta'sir)	Yoshlar orasida huquqbuzarliklarning barqaror kamayishi, qonun ustuvorligining mustahkamlanishi, huquqiy davlat va kuchli fuqarolik jamiyatining rivojlanishi	Davlat va jamiyat institutlari	Jinoyatchilik ko'rsatkichlari, huquqiy madaniyat indeksi, fuqarolarning huquqiy ishonch darajasi

Modelning ilmiy izohi

Taklif etilayotgan konseptual modelning ilmiy yangiligi shundan iboratki, unda huquqiy tarbiya jarayoni resurs – jarayon – natija – ta'sir tamoyili asosida tizimlashtirilgan. Amaldagi ilmiy tadqiqotlarning aksariyatida huquqiy tarbiya alohida pedagogik yoki huquqiy faoliyat sifatida talqin qilinsa, mazkur modelda u davlat organlari, ta'lim muassasalari, oila, mahalla va fuqarolik jamiyati institutlarining o'zaro integratsiyasiga asoslangan ko'p darajali boshqaruv tizimi sifatida yoritilgan.

Modelning yana bir afzalligi shundaki, har bir bosqich uchun aniq baholash indikatorlari ishlab chiqilgan. Bu esa huquqiy tarbiya samaradorligini nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham baholash imkonini beradi. Xususan, huquqiy bilim darajasi, huquqiy madaniyat indeksi, profilaktik tadbirlar qamrovi va yoshlar orasidagi huquqbuzarliklar dinamikasi konseptual modelning natijadorligini o'lchash mezonlari sifatida taklif etiladi.

Ushbu modelning amaliy ahamiyati shundan iboratki, undan ta'lim muassasalari, mahalla fuqarolar yig'inlari, Ichki ishlar organlari, Yoshlar ishlari agentligi hamda boshqa mutasaddi tashkilotlar faoliyatini o'zaro muvofiqlashtirishda metodik asos sifatida foydalanish mumkin. Shuningdek, model huquqiy tarbiya dasturlarini ishlab chiqish, ularning samaradorligini monitoring qilish va huquqbuzarliklarning oldini olish bo'yicha davlat siyosatini takomillashtirishda ilmiy-amaliy vosita bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa. Natijalardan kelib chiqqan holda, yoshlar orasida huquqbuzarliklarning oldini olishda huquqiy tarbiya davlat va jamiyat oldida turgan muhim strategik vazifalardan biri hisoblanadi. Globallashuv, raqamli texnologiyalar rivoji hamda axborot oqimining keskin ortishi sharoitida yoshlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, ularda qonunga hurmat va fuqarolik mas'uliyatini shakllantirish huquqbuzarliklar profilaktikasining eng samarali preventiv mexanizmlaridan biri ekanligi ilmiy jihatdan asoslandi.

Mazkur ish davomida milliy qonunchilik, xalqaro huquqiy hujjatlar hamda zamonaviy ilmiy adabiyotlar qiyosiy tahlil qilinib, huquqiy tarbiya tizimining nazariy va metodologik asoslari yoritildi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, mavjud yondashuvlarning aksariyati huquqiy ong, huquqiy madaniyat yoki huquqiy ta'limning alohida jihatlarini tadqiq etishga qaratilgan bo'lsa-da, yoshlar orasida huquqbuzarliklarning oldini olishga xizmat qiluvchi institutsional va kompleks konseptual model yetarli darajada ishlab chiqilmagan.

Mazkur ilmiy bo'shliqni bartaraf etish maqsadida tadqiqot doirasida yoshlar orasida huquqbuzarliklarning oldini olishda huquqiy tarbiyaning mualliflik konseptual modeli ishlab chiqildi. Model Input–Process–Output–Outcome–Impact tamoyiliga asoslanib, huquqiy tarbiya jarayonini resurslar, institutsional hamkorlik, pedagogik jarayonlar, natijalar va strategik ta'sir bosqichlari orqali izchil yoritadi. Modelning asosiy afzalligi shundaki, u huquqiy tarbiyani alohida tadbirlar yig'indisi sifatida emas, balki davlat organlari, ta'lim muassasalari, oila, mahalla, fuqarolik jamiyati institutlari va boshqa manfaatdor subyektlarning uzviy hamkorligiga tayanuvchi yagona tizim sifatida talqin etadi.

Olib borilgan tahlillar asosida huquqiy tarbiya samaradorligini oshirish faqat huquqiy bilimlarni berish bilan cheklanmasligini, balki yoshlarda huquqiy tafakkur, huquqiy madaniyat, huquqiy mas'uliyat va huquqiy immunitetni shakllantirish bilan chambarchas bog'liqligini ko'rsatdi. Shu bois huquqbuzarliklarning oldini olish tizimida interaktiv ta'lim metodlari, raqamli huquqiy ta'lim platformalari, mediatsiya elementlari, profilaktik treninglar hamda oila–mahalla–ta'lim muassasasi hamkorligini yanada rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur konseptual yondashuvning ilmiy ahamiyati shundan iboratki, unda yoshlar orasida huquqbuzarliklarning oldini olishda huquqiy tarbiya tizimining tarkibiy komponentlari yagona konseptual model asosida tizimlashtirildi, ularning o'zaro funksional bog'liqligi ochib berildi hamda huquqiy tarbiya samaradorligini baholash uchun amaliy indikatorlar taklif etildi. Mazkur model huquqiy tarbiya bo'yicha davlat dasturlarini ishlab chiqish, ta'lim muassasalarida huquqiy tarbiya faoliyatini takomillashtirish va profilaktika subyektlari o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirishda metodik asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Shunday qilib, ishlab chiqilgan konseptual modelni amaliyotga joriy etish yoshlar orasida huquqbuzarliklarning kamayishiga, ularning huquqiy madaniyati va fuqarolik faolligining oshishiga, shuningdek jamiyatda qonun ustuvorligi tamoyillarining yanada mustahkamlanishiga xizmat qiladi. Mazkur tadqiqot natijalari huquqiy tarbiya tizimini takomillashtirish bo'yicha keyingi ilmiy izlanishlar uchun ham nazariy va amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston , 2023.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-yanvardagi PF–5618-son Farmoni. Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida. Lex.uz.
3. UNESCO, UNODC. Strengthening the Rule of Law through Education: A Guide for Policymakers. Paris: UNESCO Publishing, 2019.
4. UNESCO. How Education Can Strengthen the Rule of Law. Paris: UNESCO, 2019.
5. Friedman L. M. The Legal System: A Social Science Perspective. New York: Russell Sage Foundation, 1975.
6. Pound R. Social Control Through Law. New Haven: Yale University Press, 1942.
7. Tursunova O. F. Significance of Raising Youth's Legal Awareness and Culture in the Spiritual Education Process. European Journal of Pedagogical Initiatives and Educational Practices. 2025.
8. O'zbekiston Respublikasining “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida”gi Qonuni. Lex.uz.
9. O'zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida”gi Qonuni. Lex.uz.
10. O'zbekiston Respublikasining “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida”gi Qonuni. Lex.uz.
11. O'zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida”gi Qonuni. Lex.uz.
12. O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi Qonuni (O'RQ–637, 23.09.2020). Lex.uz.
13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-yanvardagi PF–5618-son Farmoni. Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida.
14. UNESCO; UNODC. Strengthening the Rule of Law through Education: A Guide for Policymakers. Paris: UNESCO Publishing, 2019.

15. UNESCO. How Education Can Strengthen the Rule of Law. Paris: UNESCO, 2019.
16. UNESCO. Empowering Students for Just Societies: A Handbook for Secondary School Teachers. Paris: UNESCO, 2020.
17. United Nations Development Programme (UNDP). Legal Needs Assessment Report: Uzbekistan. Tashkent, 2025.